

**IJTIMOIY SIYOSATNING JAMIYAT MUNOSABATLARINI  
SHAKLLANTIRISHDAGI O’RNI**

***Shoyev A.X.***

*Guliston davlat universiteti - katta o‘qituvchisi*

***Karimov B.U.***

*Guliston davlat universiteti - talaba*

**Annotasiya:** Maqolada bugungi kunda ijtimoiy siyosatning jamiyat munosabatlarini shakllantirish va tartibga solishdagi o’rni tadqiq qilingan. Ijtimoiy siyosatning mazmun-mohiyati aniqlashtirilib, biron-bir millat va elatlarning o‘zligini anglashidagi ahamiyati o‘rganilgan. Ijtimoiy siyosatning to‘laqonli amalga oshirish uchun mazkur siyosat va jamiyat a’zolari o‘rtasida vujudga keladigan munosabatlarni tashkil etish mexanizmi va unga ta’sir etuvchi omillar tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** Ijtimoiy siyosat, jamiyat, tafakkur, tanazzul, milliy o‘zlig, qadriyatlar, inson.

Ijtimoiy siyosat va jamiyat munosabatlari muammosi uzoq vaqtlardan buyon o‘rganib kelinadi. Lekin davlat va uning boshqaruv shakli, uning ta’sirida muayyan jamiyat hayotidagi chuqur o‘zgarishlar bir-biri bilan uzviy bog‘liq holda, muayyan xalqlarning ruhiy, ma’naviy dunyosi, ong va tafakkur tarzi ko‘rinishlari darajasiga qarab o‘zgarib, rivojlanib borganligi amaliy nuqtai nazardan ijtimoiy siyosat tushunchasini aksioma tarzida ta’riflashga imkon bermaydi. Masalan, ijtimoiy siyosatning ilk davrlarida mifologik va diniy ong ustuvorlik qilgan bo‘lsa, tarixiy rivojlanish davomida “siyosat”, “iqtisodiy mavqe”, “huquqiy” tushunchalari va ularning o‘zaro munosabati uyg’unlikda tadqiq qilingan. Ijtimoiy siyosatning mohiyati turlicha izohlansada, uning asosida muayyan kelishuvlar asosida tartibga solingan munosabatlarga ishonch va e’tiqod tuyg’usi yotadi.<sup>1</sup> Mazkur tushuncha demokratik va nodemokratik jamiyatlarda turlicha ma’no-mazmun kasb etgan. Bu siyosatda ham o‘zining ifodasini topib borgan.

Ijtimoiy siyosatda nodemokratik tamoyillar amal qilgan jamiyatlarda taraqqiyot emas, aksincha, tanazzul holati sodir bo‘lgan. Xususan, sho‘rolar davrida “millatlarning bir-biriga yaqinlashuvi va qo‘silib ketishi” siyosati olib borildi. Natijada, millatlar o‘zining negizlaridan: tili, dini, tarixi, madaniyati, urf-odatlari va an’analardan uzoqlashdi. Milliy birlashuv emas, begonalashuv jarayoni yuzaga keldi. Bunday holatlar turli xalqlar va millatlarning o‘zligini anglash negizlariga zid bo‘lganligi uchun ham, ular o‘zligini anglashga, milliy o‘zligini saqlab qolishga intilib

<sup>1</sup> Falsafa qomusiy lug‘at. –T.: Sharq, 2004. – 112 b.

yashadi. Chunki uning amalga oshishi demokratik tamoyillar va siyosat bilan bog‘liq hodisa edi.<sup>2</sup>

Bir qarashda ijtimoiy siyosat va jamiyat munosabatlari nisbiy, mustaqil sohalar bo‘lsada, ularning bir-biriga bog‘liqligini alohida ta’kidlash lozim. Ularning o‘zaro aloqadorligi siyosatga, uning xarakteri va mazmun mohiyatiga bevosita bog‘liq holda ta’minlangan. Shu ma’noda, jamiyatning asosiy mohiyatini belgilaydigan g‘oya siyosiy voqelikka, uning mazmun-mohiyatiga, shakllanishiga “tarixiy hodisa” sifatida qarash imkonini beradi. Tarixiy taraqqiyotning muayyan bosqichida, fuqarolik jamiyatining barpo etilishi bilan aloqadorlikda “siyosat”ning ma’no mazmuni, uning asosiy unsurlari, maqsad va vazifalari ham shunga mos ravishda yangilanib boradi. Shunga ko‘ra ijtimoiy siyosat va jamiyat munosabatlari taraqqiyotini siyosiy-falsafiy nuqtai nazardan quyidagicha ifodalash mumkin:

- ijtimoiy siyosat va jamiyat o‘rtasidagi munosabatda xolislik. Ijtimoiy siyosatda jamiyatga xos ijtimoiy qadriyatlarni hisobga olish, ijtimoiy erkinlik va burchlarga amal qilinishini to‘liq ta’minalash;

- ijtimoiy siyosatda turli illatlarning ijtimoiylashuviga nisbatan “murosasiz” bo‘lish, ularga salbiy hodisa sifatida qarash hamda jamiyat tomonidan bartaraf etilishiga imkoniyat yaratish;

- ijtimoiy siyosatda milliy o‘zlikni anglash negizlarini rag’batlantirish, milliy qadriyatlarni tiklash; siyosatda milliy-madaniy va ma’naviy qarashlarning o‘rni hamda rolini hisobga olish.<sup>3</sup>

Shu kabi ijtimoiy siyosat mazmunining jamiyat tomonidan yaxshi anglanishi va qo‘llab-quvvatlanishi uchun bu munosabatlarni tashkil etishda quyidagilarni e’tiborga olish zarur:

- ijtimoiy siyosat va jamiyat manfaatlari muvofiqligini ta’minalash. Bunda ijtimoiy siyosat jamiyatning amaliy hayotida madaniy qadriyatga aylanishi yuz berishi lozim;

- ijtimoiy siyosatni ta’lim-tarbiyaga asoslangan holda tashkil etish. Bu siyosat falsafasi nuqtai nazardan dunyoviy davlat qurish tamoyillariga ham mos keladi. Buning o‘ziga xos sababi mavjud bo‘lib, xalqimiz qadriyatlari va madaniy merosining ma’naviy-axloqiy ildizlarini tadqiq qilish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Siyosiy-falsafiy nuqtai nazardan yondashganda tarixiy jarayonlarning ko‘rsatishicha, ijtimoiy siyosat va jamiyat munosabatlari borasidagi tasavvurlar, urfodatlar, an’ana, qadriyatlarni jamiyatning keyingi rivojlanish bosqichlarida charxlanib sinovdan o‘tganlari yangi mazmun va shakl kasb etib, kishilar dunyoqarashida

<sup>2</sup>Milliy g‘oya: targ‘ibot texnologiyalari va atamalar lug‘ati. – T.: Akademiya, 2007. – 135 b.

<sup>3</sup>Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. //Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo‘lida. 6-jild. –T.: O‘zbekiston, 1998. – 128 b.

namoyon bo‘lib, madaniy meros sifatida avloddan avlodga o‘tib boradi. Shuning uchun ham bu munosabatlar millatning uzoq o‘tmishini, buguni va istiqbolini bog‘lab turuvchi ko‘prik deyish mumkin.<sup>4</sup>

Demak, to‘g’ri ijtimoiy siyosat madaniy qadriyatlarning inson va jamiyat hayotidagi o‘rnini e‘tirof etadi va uning rivojlanishini qo‘llab quvvatlaydi. Muammoga siyosiy-falsafiy nuqtai nazardan yondashilsa, bu siyosatning oldiga qo‘ygan maqsadi va uning mohiyati bilan uzviy bog‘liq. Tarixda sodir bo‘lgan siyosiy jarayonlar mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-siyosiy hayotida o‘ziga xos o‘zgarishlar yasadi. Bunda siyosatdagi o‘zgarishlar: ijtimoiy-iqtisodiy hayot negizlarida; odamlar hayot tarzi, urf-odat va an‘analarida; siyosiy tartibotlar, rejim, hokimiyat qurilmalarida; siyosiy tartibotlarning xalqlar amal qilib kelgan odat va diniy qadriyatlarga bo‘lgan munosabatida; o‘zlikni anglash, milliy o‘zlikni anglash negizlariga munosabatda yaqqol ko‘zga tashlangan.

Ijtimoiy siyosatning asosiy maqsadlaridan biri siyosiy hokimiyat va u ilgari surayotgan g‘oyalarni jamiyat ongiga singdirishdir. Buning uchun avvalo, mavjud madaniy meros va qadriyatlarga nisbatan ijobiy munosabatda bo‘lish talab etiladi. Ma’lumki, siyosatda har bir yangi g‘oya ta’limotni insonlar ongi va qalbi, xalq turmushiga osonlikcha joriy etib bo‘lmaydi. Chunki inson ongi va qalbidan joy olgan g‘oya va ta’limotlar o‘z o‘rnini shunchaki, bo‘shatib bermaydi. Buning uchun ijtimoiy siyosat va jamiyat manfaatlari muvofiqligini ta’minalash kerak bo‘ladi. Jamiyat manfaatlari uning ehtiyojlari bilan bog‘liqligi esa inson ongi, qalbi, ruhini zabit etish mushkul ish ekanini ko‘rsatadi<sup>5</sup>

Jamiyat manfaatlari shu jamiyat ichida tashkil topgan va amal qiladigan turli jamoat birlashmalari, uyushmalari orqali namoyon bo‘ladi. Avvalo bu institutlar jamiyatdagi ehtiyoj tufayli yuzaga keladi va jamiyat manfaatlarini ifodalash, amalga oshirish uchun faoliyat ko‘rsatadi. Ularning yashovchanligi manfaatlarga nechog‘lik muvofiq kelishi bilan bog‘liq. O‘z navbatida, ular avtoritar boshqaruv tizimini rad etadi. Chunki, avtoritar boshqaruv jamiyat manfaatlarini hamisha ham ifodalayvermaydi. Manfaatlar muvozanatining buzilishi jamiyatni inqiroz holatiga olib kelishi mumkin.

Ingliz olimi va faylasufi Gerbert Spenser (1820-1903)ning fikricha, jamiyatning inqirozga yuz tutishi ijtimoiy muvozanat, garmoniya va ijtimoiy barqarorlikni istisno etadi. Jamiyatning inqirozi Spenserning fikricha, davlat institutlari faoliyatining samarasizligi tufayli vujudga keladi. Hokimiyat, armiya, tashkilot institutlarning yaroqsizligi ham inqirozni yanada kuchaytiradi. Omma harakatiga ayrim shaxslar, siyosatchilar xalaqit beradilar, xarakatlarning birlashishi buziladi, markazdan qochish

<sup>4</sup> Xayitov Z. Milliy meros o‘zlikni anglashning ma’naviy asosi. //Hayot va qonun. – №4. –T.: 2005. – 54 b.

<sup>5</sup> Ibrohimov A. Bizkim, o‘zbeklar. –T.: Sharq, 1999. – 150 b.

tendentsiyasi kuchayadi. Tartibsizlik sanoat va savdo tashkilotlarining faoliyatini izdan chiqaradi.<sup>6</sup>

Davlat institutlari faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yish bilan birga jamiyat tuzilmalari tashkil topish asoslarini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish muhim ahamiyatga egadir. Jamoat birlashma va tuzilmalari fuqarolar manfaatlarini ifodalagan holda davlat institutlari faoliyatiga ta’sir ko‘rsatishlari uchun huquqiy asoslarning yaratilganligi demokratik boshqaruvning asosiy shartlaridan biridir.

Jamiyat manfaatlari fuqarolar manfaatlarini ifodalagani kabi, fuqarolar manfaatlari ham jamiyat manfaatlari bilan muvofiq kelishi lozim. Ya’ni, har bir fuqaro jamiyatda to‘g‘ri ijtimoiy siyosat olib borilishidan manfaatdor bo‘lishi bilan birga bu jarayonlarda faol ishtirok etishi, o‘z manfaatlarini jamiyat manfaatlari bilan uyg‘unlashtirishi muhim ahamiyatga ega.

Shu nuqtai-nazardan, ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda, fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy, huquqiy savodxonligini oshirish, ma’naviy ongni yuksaltirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish asosiy omillardan biri bo‘lmog’i kerak.

Ma’lumki, yangi jamiyatni qurish, yangi islohotlarni amalga oshirishni toqazo etadi. Bu islohotlar zamon talablari va yangiliklarini o‘zida mujassam etgan holda, insonlarning farovon, ozod va obod hayot kechirishlariga zamin yaratmog’i lozim. Har bir insonning hayoti jamiyat ichki qurilmasi bilan uzviy bog‘liq, uning shaxsiy manfaatlarini ham ijtimoiy manfaatlardan ayro ko‘rib bo‘lmaydi. Chunki u yashayotgan eng kichik jamoa-oila yoki boshqa muhit jamiyat ichidadir va jamiyatning ijtimoiy institutlari hisoblanadi. Bu borliqda shaxs siyosiy ijtimoiylashuvi lozim bo‘ladi.

Siyosiy ijtimoiylashuv o‘z-o‘zidan shaxsning siyosiy faolligini oshiradi. Siyosiy faollikning mazmunini sinf yoki ijtimoiy guruqlar o‘rtasidagi siyosiy munosabatlar, yaratilgan shart-sharoitlar tashkil etadi. Shaxs siyosiy faolligining pirovard maqsadi inson imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish yordamida uning ijtimoiy mavqeini, farovonligini yanada yaxshilash, qadr-qimmatini oshirish, jamiyatni demokratlashtirish hisoblanadi.

Shaxsning siyosiy faolligi uning boshqaruvdagi ishtirokining darajasini belgilab bersa, ijtimoiy faolligi uning turmush darajasini yaxshilashga zamin yaratadi. Aholi turmush darajasini belgilovchi ko‘rsatkichlarning natijadorligida ham shaxs faolligi muhim omil hisoblanadi.

Garchi, aholining turmush darajasini belgilashda muhim hisoblansada, ma’lum bir hududda ayrim, masalan, ish haqining o‘sishi, ishsizlik darajasi va shunga o‘xshash ko‘rsatkichlar bilan ijtimoiy siyosatning holatini baholash to‘g‘ri emas. Ijtimoiy

<sup>6</sup> Спенсер Г. «Система синтетической философии». М. 1998. 314 с.

siyosat jamiyatda amalga oshiriladi. Ijtimoiy siyosat-bu jamiyatni harakatga keltiruvchi, boshqaruvchi, uni taraqqiy ettiruvchi yaxlit tizim yoki kuchdir.

Xullas, ijtimoiy siyosat murakkab hodisa bo‘lib-jamiyat salohiyatini rivojlantirish va takomillashtirish maqsadida amalga oishiriladigan chora-tadbirlarni muvofiqlashtirish bo‘yicha davlat faoliyatining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. U butun jamiyatni va ijtimoiy munosabatlarni qamrab oluvchi ijtimoiy tartibga solishga qaratilgan, shuningdek, ijtimoiy qadriyatlarning ustuvorligini ta’minalashga ta’sir ko‘rsatadi.

Zamonaviy ijtimoiy siyosat ilmiy asoslangan, tarixan aniq va jamiyatning haqiqiy talabini hisobga oluvchi, rejali va istiqbolli xarakterga ega bo‘lishi zarur. U jamiyat, boshqaruv haqidagi fanlarga asoslanishi, demokratik tamoyillarga tayanishi hamda davlatning ahvoli, uning rivojlanishi uchun mo‘ljallangan maqsadlarni amalga oshirish imkoniyatlari, kishilar dunyoqarashi va mafkuraviy qarashlarini hisobga olishi lozim. Davlat ijtimoiy siyosatining maqsadini belgilash shaxs, jamiyat va davlat manfaatlaridan, demografik va madaniy-tarixiy rivojlanish xususiyatlaridan, shuningdek bandlik, ishsizlik, ta’lim darajalari va boshqa omillardan kelib chiqqan holda amalga oshirilishi oqilona ijtimoiy siyosatning eng muhim shartlari hisoblanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1.** Falsafa qomusiy lug‘at. –T.: Sharq, 2004. – 112 b.
- 2.** Milliy g’oya: targ’ibot texnologiyalari va atamalar lug’ati. –T.: Akademiya, 2007. – 135 b.
- 3.** Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. //Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo‘lida. 6-jild. – T.: O‘zbekiston, 1998. – 128 b.
- 4.** Xayitov Z. Milliy meros o‘zlikni anglashning ma’naviy asosi. //Hayot va qonun. – №4. – T.: 2005. – 54 b.
- 5.** Ibrohimov A. Bizkim, o‘zbeklar. –T.: Sharq, 1999. – 150 b.
- 6.** Спенсер Г. «Система синтетической философии». М.:1998. 314 - c.